5x5=25

R.Q.QARSHIYEV

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan iqtisod va moliya ta`lim yo`nalishlari talabalari uchun kurs ishlarini yozish bo`yicha uslubiy maslahatlar va kurs ishlari tematikasi



SAMARQAND – 2005

1502/158

Qarshiev R.Q.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan iqtisod va moliya ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun kurs ishlarini yozish bo'yicha uslubiy maslahatlar va kurs ishlari tematikasi

2005 202-31

06.03,06 U

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«Ijtimoiy - gumanitar fanlar» kafedrasi

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan iqtisod va moliya ta`lim yo'nalishlari talabalari uchun kurs ishlarini yozish bo'yicha uslubiy maslahatlar va kurs ishlari tematikasi

SAMARQAND – 2005

75.01
277

Kurs ishlari tematikasi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta`limini rivojlantirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta`lim Vazirligi tomonidan 2004 yilda tasdiqlangan Namunaviy Dastur asosida tuzilgan va kafedraning №1 bayonnomasi (29-avgust 2005 yil) bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: i.f.n., dots. R. Q. Qarshiyev
assistent A. Q. To'xtamishev
Taqrizchilar: i.f.n., dotsent J. O. Oripov (SamISI)
i.f.n., dotsent T. X. Xaitov (SamQXI)

54911

MUQADDIMA

Har bir iqtisodiyotni o'rganuvchi, shu jumladan iqtisodiyot, moliya, bank ishi, menejment, marketing, turizm menejmenti, turizm marketingi, biznesni boshqarish, kasbiy ta`lim, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishidagi barcha talabalar «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini 144 soatlik dastur asosida o'rganib, ushbu fandan kurs ishi ham bajarishlari zarur.

Buning asosiy sababi birgina, ya`ni faqatgina o'quv jarayonidagi rejalashtirishdan kelib chiqqan holda emas. balki har bir talaba ushbu fan bo'yicha umumnazariy – iqtisodiy bilim olish bilan bir qatorda iqtisodiyotning ayrim nazariy muammolarini chuqur bilishlari, uni o'rganish, iqtisodiy tahlil qilish asosida o'z fikrlarini bayon qilish kabi hislatlarga ham ega bo'lmog'i zarur, zero «Iqtisodiyot nazariyasi» fani talabalarga nazariy bilim berish bilan bir qatorda ularda ijtimoiy – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni fikrlash, tahlil qilishni ham o'rgatadi. Bu boshqa aniq iqtisodiy fanlarni (Iqtisodiy tahlil, Buxgalteriya hisobi, Statistika, Moliya, Menejment) o'rganishda va shu fanlardan malakaviy bilim olishda katta yordam beradi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani boshqa iqtisodiy fanlarning «poydevori» yoki «tamal toshi»dir. Shu boisdan mashhur ingliz iqtisodchisi, Nobel mukofotining laureati M.Gelbrayt bejiz bu fanni «fanlar podshosi» deb ta`riflamagan edi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti bilan bog'liq iqtisodiy muammolar (barcha boshqa fanlardagi muammolar ham ma`lum darajada ushbu fan bilan bog'liq), bo'lg'usi mutaxassis sifatida shakllanadigan har bir talabani o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi. Qolaversa, ana shu muammolar to'g'risidagi fikrlarni bayon etish yangi fikr va g'oyalarni shakllantirishga, ularni tartibga solib, o'z xulosalarini yozishga ham o'rgatadi. Bunda ushbu fan bo'yicha yoziladigan kurs ishi yuqoridagi fikrlarimiz uchun zaruriy o'quv jarayonidir.

Kurs ishini yozish o'z ichiga quyidagi talablarni oladi:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash.
2. Mavzuni o'rganish va unga doir turli adabiyotlar va materiallar to'plash.

Inv № 1502/158

3. To'plangan adabiyotlar va materiallarni o'rganish.
4. Kurs ishi rejasini tuzish.
5. Kurs ishi loyihasini yozish va uni ilmiy rahbar bilan hamkorlikda ko'rib chiqish.
6. Kurs ishini kafedraga topshirish va ijobiy taqriz olib himoya qilish.

KURS ISHI MAVZUSINI TANLASH

Kurs ishi mavzusini tanlashda har bir talaba kafedrada belgilangan (shifrlangan) mavzular tematikasi bo'yicha 3-5 mavzudan o'ziga tanish va yaxshi biladigan, qiziqishi yuqori bo'lganini tanlab olishi zarur bo'ladi.

Albatta, har bir talabada «Iqtisodiyot nazariyasi» bo'yicha o'tilgan darslar davomida qiziqadigan mavzusi yoki iqtisodiy muammosi bo'ladi. Ayrim hollarda ilmiy rahbarning ruhsati bilan talaba mavzu tematikasidan tashqari erkin mavzu tanlashi va shu asosida kurs ishini bajarishi ham mumkin. Bunga ruhsat etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining har qanday muammosi bo'yicha tanlashi mumkin.

Kurs ishi mavzusini tanlashdagi yana bir imkoniyat - bu seminar darsida yoki kafedrada ochilgan to'garaklarda ishtirok etish davomida o'ziga yoqqan yoki ma`qul tushgan mavzuni tanlashi mumkin bo'ladi.

MAVZUNI O'RGANISH VA UNGA DOIR TURLI ADABIYOTLAR VA MATERIALLAR TO'PLASH

Talaba kurs ishi mavzusini tanlagandan keyin ushbu mavzu bo'yicha kerakli adabiyotlarni, ayniqsa iqtisodiyotga oid jurnallarni chuqur o'rganishi zarur. Bunda ushbu mavzu bo'yicha matbuotdagi fikr va mulohazalar, ilmiy xulosalar, ta`limotlar qiyoslanib umumiy bir yo'nalish hosil qilinadi.

TO'PLANGAN ADABIYOTLAR VA MATERIALLARNI O'RGANISH

Keyingi bosqichda talaba adabiyotlar bo'yicha konspektlar qilib, har birini ishlab chiqishi, tartibga solishi, ular ichidan eng muhimlarini, yangi fikr va mulohazalarni alohida ajratib yozib borish, belgilab qo'yish orqali barcha adabiyotlar, masalalar bir tizimga solinib o'z tanlagan mavzusi bo'yicha qanday reja tuzish mumkinligi to'g'risida xulosa qiladi.

KURS ISHINING REJASINI TUZISH

Mavzu uchun tuziladigan reja mavzudagi dolzarb muammolar to'g'risidagi fikrlarni ketma-ket (sistemali) bayon etish maqsadida zarur bo'ladi. Har bir mavzuning rejasi, shu mavzu bo'yicha o'rganiladigan ijtimoiy - iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini, uning shakllarini, rivojlanish jarayonlarini, unga ta`sir etuvchi omillarni va nihoyat, uning hozirgi holatini bayon etmog'i va mavzu mazmunini batafsil ochib bermog'i lozimdir. Masalan, «Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlar» to'g'risidagi kurs ishi uchun tuziladigan reja quyidagicha bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Kirish.

1. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati.
2. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarning turlari.
3. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarning o'sib borish qonuni.
4. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarning ishlab chiqarish bilan bog'liqligi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Rejada albatta kurs ishi bo'yicha xulosa mustaqil ravishda yozilishi shart.

Kurs ishining xulosa qismida barcha o'rganilgan adabiyot va maqolalardan, statistik ma`lumotlardan kelib chiqqan holda talaba ushbu mavzuga o'zining

mustaqil munosabatini bildiradi. Xulosa qisqa, aniq, mazmunli va ravon bo'lishi kerak.

KURS ISHI LOYIHASINI YOZISH VA UNI ILMIY RAHBAR BILAN HAMKORLIK KO'RIB CHIQISH

Kurs ishi yozishda rejadagi birinchi savol o'rganilib, unga tegishli barcha ma`lumotlar, belgilar, sitatalar, raqamlar, iqtisodchi olimlarning fikrlari tartib bilan ketma-ket bayon etilib, o'zaro bir-birlariga mazmunan bog'lanib, mavzu mohiyatini ochib beradgan darajadagi yozuvlarni o'z fikrlari orqali yoki sitatalardan misollar keltirgan hoda nomayon etish bilan birinchi savol loyihasining mazmuni yoziladi. Uning hajmi tahminan 10-12 bet yoki 5-6 varaq bo'lishi mumkin. Ana shunday usulda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi savollarning mazmuni bayon qilinadi.

Ikkinchi savol 7-8 bet, uchinchi savol 10-12 bet va to'rtinchi savol ham 12-14 bet hajmda yozilishi zarur.

Kurs ishining to'liq hajmi o'rta hisobda 30-35 betdan kam bo'lmasligi kerak. Albatta, kurs ishining mavzusiga qarab uning hajmi oz yoki ko'p bo'lishi ham mumkin. Kurs ishi loyihasi yozib bo'lingandan keyin uni ilmiy rahbar bilan birgalikda ko'rib chiqish, kamchiliklarini to'ldirish va talabaga kurs ishidagi o'zgartirishlar kiritilishi lozim bo'lgan rejaga yangi savollarni kiritish kerak bo'ladi.

KURS ISHINI KAFEDRAGA TOPSHIRISH VA IJOBIY TAQRIZ OLIB HIMOYA QILISH

Kurs ishi loyihasi tayyor bo'lgach, talaba uni o'z qo'li bilan chiroyli, tushinarli qilib oq qog'ozlarga sifatli holda rasmiylashtirishi va kafedraga topshirishi lozim. Kafedrada kurs ishi ilmiy rahbar tomonidan o'qib-o'rganiladi va unga taqriz yoziladi. Taqrizda xato va kamchiliklar ham aniq bayon etiladi. Kurs ishi mazkur taqriz asosida uni yangidan yozishga yoki faqatgina kamchiliklarini bartaraf etish va so'ngra himoya qilishga ruhsat etiladi. Shundan so'ng kurs ishi talabaga qaytariladi va undagi xato va kamchiliklar bartaraf etilishi uchun vaqt

ajratiladi. Har bir talabaga kafedrada tuzilgan kurs ishini himoya qilish jadvali asosida himoya vaqti belgilanadi.

Himoyani o'tkazish uchun kafedrada tuzilgan komissiya (odatda 2-3 kishidan iborat bo'ladi) talabaning kurs ishi bo'yicha ma`ruzasini tinglab, savol-javob bilan uning reytingi (bahosi) aniqlanadi.

Kurs ishini tayyorlab, mahsus daftarga yoki qog'ozlar to'plamidan iborat jild (papka)ga tikilgan holda kompyuterda yozilgan titul varag'i bilan kafedraga topshirishi shart. Chunki yaxshi yozilgan referat va kurs ishi tanlovi ham o'tkazilib, eng yaxshi deb topilgan kurs ishlari mazkur tanlovga taqdim etiladi va kafedrada namuna tariqasida saqlanadi.

Kurs ishining oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Adabiyotlar ro'yxatini tuzishda eng avvalo, Respublikamiz Konstitutsiyasi, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan Qonunlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qarorlar, Prezident asarlari, ma`ruzalari o'z aksini topishi, so'ngra boshqa mualliflar ro'yxati alfavit tartibi bilan berilishi lozim.

Adabiyotlarni ikki qismga bo'lib berish ham mumkin. Birinchisi asosiy adabiyotlar va ikkinchisi qo'shimcha adabiyotlar shaklida. Kurs ishini yozishda, uni rasmiylashtirishda keltirilgan raqamlar, jadval va grafiklar aniq ifodalangan holda hamda mazkur ma`lumotlar manbalari ham ko'rsatilishi shart.

Kurs ishi tushinarli tilda, aniq harflar bilan o'qiy oladigan darajada yozilishi zarur. Kurs ishi bo'yicha mvzularni o'rganishni keyinchalik yana davom ettirib, bitiruv malakaviy ishga aylantirish ham mumkin. Buning uchun talaba shu mavzu ustida doimo izlanish olib borishi va kerakli adabiyotlarni o'qib borishi lozim bo'ladi.

KURS ISI MAVZULARI

1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanish jarayonlari.
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.
3. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar.

4. Moddiy va ma`naviy ne`matlarni ishab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste`mol qilishdagi iqtisodiy munosabatlar.

5. Davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi sifatida iqtisodiy nazariyaning tutgan o'rni va vazifalari.

6. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlar va ularning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligi.

7. Resurslar cheklangan sharoitda cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammolari.

8. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni va iqtisodiy asoslari.

9. Ishlab chiqarish omillari va ular to'g'risidagi nazariyalar.

10. Iqtisodiy taraqqiyotni ta`minashda modernizatsiyaning o'rni va roli.

11. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning asosiy ko'rsatkichlari.

12. Fan-texnika taraqqiyoti asosida ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi va takomillashuvi.

13. O'zbekistonning iqtisodiy resurslari va ulardan samarali foydalanish muammolari.

14. Ijtimoiy ishlab chiqarish usuli va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar.

15. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy tizimning ichki o'zaro bog'liqligi.

16. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning turli tuman shakllari.

17. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilik munosabatlarining o'rni va roli.

18. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'llari.

19. Natural va tovar ishlab chiqarishning ijtimoiy xo'jalik shakllari.

20. Tovar qiymati va uning xususiyatlari.

21. Mehnat unumdorligi va mehnat intensivligi.

22. Mehnat unumdorligi va mehnat intensivligining tovar qiymatiga ta`siri.

23. Qiymat qonunining ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyati.

24. Pul va uning vazifalari.

25. O'zbekistonda milliy pul – so'mning muomilaga kiritilishi va uning ahamiyati.

26. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va kelib chiqishining tarixiyligi.
27. Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan samarali foydalanish usullari.
28. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va uning xususiyatlari.
29. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nazariyasi.
30. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari.
31. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli» va uning xususiyatlari.
32. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining yaratilishi va uning muammolari.
33. Talab va taklif qonunlari va ularning harakat qilish mexanizmi.
34. Bozor muvozanati va uning iqtisodiyotga ta`siri.
35. Raqobat kurashining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
36. Monopoliyalar va davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari.
37. Narx va uning ob`ektiv asoslari.
38. Tadbirkorlik faoliyati va uning asosiy shakllari.
39. Kichik va xususiy biznesning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rni va rivojlanish xususiyatlari.
40. Aksionerlik jamiyati va aksionerlik kapitalini shakllantirishning asosiy tamoyillari.
41. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati va ularning doiraviy aylanish bosqichlari.
42. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi va uni oshirish yo'llari.
43. Korxonalar (firmalar)da ishlab chiqarish harajatlari.
44. Korxonaning pul tushumlari va foydasi.
45. Korxona foydasini oshirish yo'llari.
46. Foyda normasining kamayib borish qonuni.
47. Ish haqining iqtisodiy mazmuni va turlari.
48. Mehnat munosabatlari va uning tarkibi.
49. Mehnat va kapital o'rtasidagi munosabatlar evolyutsiyasi.
50. Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari.

51. Yer rentasi va renta miqdoriga ta`sir qiluvchi omillar.
52. Agrosanoat integratsiyasi, agrobiznes va uning turlari.
53. O'zbekistonda agrar sektor va fermer - dehqon xo'jaligini rivojlantirish.
54. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning shakllanish xususiyatlari.
55. Makroiqtisodiyot, uning ko'rsatkichlari, maqsadi va vazifalari.
56. Makroiqtisodiyotning rivojlanishi to'g'risidagi asosiy nazariyalar.
57. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari.
58. Ijtimoiy formatsiyalar va ularni belgilovchi omillar.
59. Yalpi talab va uning miqdoriga ta`sir etuvchi omillar.
60. Yalpi taklif va uning miqdoriga ta`sir etuvchi omillar.
61. Yalpi talab va taklif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.
62. Iste`molning iqtisodiy mazmuni.
63. Iste`mol fondining taqsimlanishi va aholi daromadlarining shakllanishi.
64. Jamg'arish va iste`molning iqtisodiy mazmuni.
65. Investitsiyaning mohiyati va vazifalari.
66. Investitsiya va uning darajasini aniqlovchi omillar.
67. Investitsiya samaradorligi.
68. O'zbekistonda investitsion faoliyat va uning ko'rsatkichlari.
69. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot.
70. Iqtisodiy o'sish mezonlari va ko'rsatkichlari.
71. Milliy boylik tushinchasi va undan foydalanish muammolari.
72. O'zbekistonning iqtisodiy potensiali va undan samarali foydalanish.
73. Iqtisodiy o'sish va unga ta`minlash muammolari.
74. Makroiqtisodiy muvozanat va unga erishi yo'llari.
75. Iqtisodiyotdagi tarkibiy va takror ishlab chiqarish muvozanatlarini tahlil qilishda «harajat – natija» usulidan foydalanish.
76. Milliy iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish.
77. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini aniqlashda Keyns modelidan foydalanish.

78. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ziddiyatlari va uni bartaraf etish usullari.
79. Iqtisodiy sikllar va iqtisodiy barqarorlik nazariyasi.
80. Tarkibiy inqirozlar va iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar.
81. Ishchi kuchi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
82. O'zbekistonda sotsial demografik jarayonlar va ularning xususiyatlari.
83. Bandlik nazariyasi.
84. Ishchi kuchi bandligi va ta`minlash erishish yo'llari.
85. Ishchi kuchi bozori.
86. Ishchi kuchiga talab va taklif.
87. O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining shakllanishi va tartibga solinishi.
88. Bozor iqtisodiyotida moliya.
89. Davlat byudjetining milliy daromadalarni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi roli.
90. O'zbekiston Respublikasi byudjetining tuzilishi va tarkibi.
91. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va soliqlar tizimining vazifalari.
92. Moliyaviy inqiroz va uni bartaraf etish yo'llari.
93. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning moliyaviy siyosati.
94. Pul muomilasi va pul tizimi.
95. Pul muomilasining amal qilish qonuniyatlari.
96. M.Fridmanning pul to'g'risidagi nazariyasi.
97. Pul bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat.
98. Inflyatsiya va uning sabablari.
99. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari.
100. Qimmatli qog'ozlar bozori.
101. Pul-kredit tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi.
102. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi.
103. Banklarning roli va vazifalari.
104. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati, zaruriyati va modellari.

105. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi.

106. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy adolat prinsplarining rivojlanishi.

107. Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlashning iqtisodiy mexanizmi.

108. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.

109. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati.

110. Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari.

111. Iqtisodiyotning baynalmilallashuvida fan-texnika taraqqiyoti va transmilliy kapitalning roli.

112. Halqaro iqtisodiy integratsiya va uning vazifalari.

113. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tabaqalanishuvi.

114. O'zbekistonda ochiq iqtisodiyotni yaratish va chet el kapitallarini jalb qilish muammolari.

115. Jahon bozori va halqaro savdo.

116. Halqaro valyuta tizimi.

117. Mahalliy o'z-o'zini boshqarishning iqtisodiy asosi va uni mustahkamlash yo'llari.

118. Ssuda kapitalining jahon bozori.

119. O'zbekiston Respublikasining halqaro valyuta va kredit tashkilotlari bilan hamkorligi va istiqbollari.

120. Milliy va halqaro bozorlarning o'zaro bog'liqligi va ularning muammolari.

МУҚАДДИМА

Ҳар бир иқтисодиётни ўрганувчи, шу жумладан иқтисодиёт, молия, банк иши, менежмент, маркетинг, туризм менежменти, туризм маркетинги, бизнесни бошқариш, касбий таълим, бухгалтерия ҳисоби ва аудит йўналишидаги барча талабалар «Иқтисодиёт назарияси» фанини 144 соатлик дастур асосида ўрганиб, ушбу фандан курс иши ҳам бажаришлари зарур.

Бунинг асосий сабаби биргина, яъни фақатгина ўқув жараёнидаги режалаштиришдан келиб чиққан ҳолда эмас, балки ҳар бир талаба ушбу фан бўйича умумназарий – иқтисодий билим олиш билан бир қаторда иқтисодиётнинг айрим назарий муаммоларини чуқур билишлари, уни ўрганиш, иқтисодий таҳлил қилиш асосида ўз фикрларини баён қилиш каби ҳислатларга ҳам эга бўлмоғи зарур, зеро «Иқтисодиёт назарияси» фани талабаларга назарий билим бериш билан бир қаторда уларда ижтимоий – иқтисодий ҳодиса ва жараёнларни фикрлаш, таҳлил қилишни ҳам ўргатади. Бу бошқа аниқ иқтисодий фанларни (Иқтисодий таҳлил, Бухгалтерия ҳисоби, Статистика, Молия, Менежмент) ўрганишда ва шу фанлардан малакавий билим олишда катта ёрдам беради. «Иқтисодиёт назарияси» фани бошқа иқтисодий фанларнинг «пойдевори» ёки «тамал тоши»дир. Шу боисдан машҳур инглиз иқтисодчиси, Нобель мукофотининг лауреати М.Гельбрайт бежиз бу фанни «фанлар подшоси» деб таърифламаган эди.

Кишилик жамиятининг тараққиёти билан боғлиқ иқтисодий муаммолар (барча бошқа фанлардаги муаммолар ҳам маълум даражада ушбу фан билан боғлиқ), бўлғуси мутахассис сифатида шаклланадиган ҳар бир талабани ўйлашга, фикрлашга мажбур қилади. Қолаверса, ана шу муаммолар тўғрисидаги фикрларни баён этиш янги фикр ва ғояларни шакллантиришга, уларни тартибга солиб, ўз хулосаларини ёзишга ҳам ўргатади. Бунда ушбу фан бўйича ёзиладиган курс иши юқоридаги фикрларимиз учун зарурий ўқув жараёнидир.

Курс ишини ёзиш ўз ичига қуйидаги талабларни олади:

1. Курс иши мавзусини танлаш.
2. Мавзуни ўрганиш ва унга доир турли адабиётлар ва материаллар тўплаш.
3. Тўпланган адабиётлар ва материалларни ўрганиш.
4. Курс иши режасини тузиш.
5. Курс иши лойиҳасини ёзиш ва уни илмий раҳбар билан ҳамкорликда кўриб чиқиш.
6. Курс ишини кафедрага топшириш ва ижобий тақриз олиб ҳимоя қилиш.

КУРС ИШИ МАВЗУСИНИ ТАНЛАШ

Курс иши мавзусини танлашда ҳар бир талаба кафедрада белгиланган (шифрланган) мавзулар тематикаси бўйича 3-5 мавзудан ўзига таниш ва яхши биладиган, қизиқиши юқори бўлганини танлаб олиши зарур бўлади.

Албатта, ҳар бир талабада «Иқтисодиёт назарияси» бўйича ўтилган дарслар давомида қизиқадиган мавзуси ёки иқтисодий муаммоси бўлади. Айрим ҳолларда илмий раҳбарнинг руҳсати билан талаба мавзу тематикасидан ташқари эркин мавзу танлаши ва шу асосида курс ишини бажариши ҳам мумкин. Бунга руҳсат этилади. Масалан, Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг ҳар қандай муаммоси бўйича танлаши мумкин.

Курс иши мавзусини танлашдаги яна бир имконият – бу семинар дарсида ёки кафедрада очилган тўгаракларда иштирок этиш давомида ўзига ёққан ёки маъқул тушган мавзуни танлаши мумкин бўлади.

МАВЗУНИ ЎРГАНИШ ВА УНГА ДОИР ТУРЛИ АДАБИЁТЛАР ВА МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАШ

Талаба курс иши мавзусини танлагандан кейин ушбу мавзу бўйича керакли адабиётларни, айниқса иқтисодиётга оид журналларни чуқур ўрганиши зарур. Бунда ушбу мавзу бўйича матбуотдаги фикр ва

мулоҳазалар, илмий хулосалар, таълимотлар қиёсланиб умумий бир йўналиш ҳосил қилинади.

ТЎПЛАНГАН АДАБИЁТЛАР ВА МАТЕРИАЛЛАРНИ ЎРГАНИШ

Кейинги босқичда талаба адабиётлар бўйича конспектлар қилиб, ҳар бирини ишлаб чиқиши, тартибга солиши, улар ичидан энг муҳимларини, янги фикр ва мулоҳазаларни алоҳида ажратиб ёзиб бориш, белгилаб қўйиш орқали барча адабиётлар, масалалар бир тизимга солиниб ўз танлаган мавзуси бўйича қандай режа тузиш мумкинлиги тўғрисида хулоса қилади.

КУРС ИШИНИНГ РЕЖАСИНИ ТУЗИШ

Мавзу учун тузиладиган режа мавзудаги долзарб муаммолар тўғрисидаги фикрларни кетма-кет (системали) баён этиш мақсадида зарур бўлади. Ҳар бир мавзунинг режаси, шу мавзу бўйича ўрганиладиган ижтимоий - иқтисодий ҳодиса ва жараёнларнинг моҳиятини, унинг шаклларини, ривожланиш жараёнларини, унга таъсир этувчи омилларни ва ниҳоят, унинг ҳозирги ҳолатини баён этмоғи ва мавзу мазмунини батафсил очиб бермоғи лозимдир. Масалан, «Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжлар» тўғрисидаги курс иши учун тузиладиган режа қуйидагича бўлса мақсадга мувофиқ бўлади:

Кириш.

1. Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжларнинг моҳияти.
2. Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжларнинг турлари.
3. Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжларнинг ўсиб бориш қонуни.
4. Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжларнинг ишлаб чиқариш билан боғлиқлиги.

Хулоса.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

Режада албатта курс иши бўйича хулоса мустақил равишда ёзилиши шарт.

Курс ишининг хулоса қисмида барча ўрганилган адабиёт ва мақолалардан, статистик маълумотлардан келиб чиққан ҳолда талаба ушбу мавзуга ўзининг мустақил муносабатини билдиради. Хулоса қисқа, аниқ, мазмунли ва равон бўлиши керак.

КУРС ИШИ ЛОЙИҲАСИНИ ЁЗИШ ВА УНИ ИЛМИЙ РАҲБАР БИЛАН ҲАМКОРЛИК КЎРИБ ЧИҚИШ

Курс иши ёзишда режадаги биринчи савол ўрганилиб, унга тегишли барча маълумотлар, белгилар, цитаталар, рақамлар, иқтисодчи олимларнинг фикрлари тартиб билан кетма-кет баён этилиб, ўзаро бир-бирларига мазмунан боғланиб, мавзу моҳиятини очиб берадган даражадаги ёзувларни ўз фикрлари орқали ёки цитаталардан мисоллар келтирган ҳолда номаён этиш билан биринчи савол лойиҳасининг мазмуни ёзилади. Унинг ҳажми таҳминан 10-12 бет ёки 5-6 варақ бўлиши мумкин. Ана шундай усулда иккинчи, учинчи ва тўртинчи саволларнинг мазмуни баён қилинади.

Иккинчи савол 7-8 бет, учинчи савол 10-12 бет ва тўртинчи савол ҳам 12-14 бет ҳажмда ёзилиши зарур.

Курс ишининг тўлиқ ҳажми ўрта ҳисобда 30-35 бетдан кам бўлмаслиги керак. Албатта, курс ишининг мавзусига қараб унинг ҳажми оз ёки кўп бўлиши ҳам мумкин. Курс иши лойиҳаси ёзиб бўлингандан кейин уни илмий раҳбар билан биргаликда кўриб чиқиш, камчиликларини тўлдириш ва талабага курс ишидаги ўзгартиришлар киритилиши лозим бўлган режага янги саволларни киритиш керак бўлади.

КУРС ИШИНИ КАФЕДРАГА ТОПШИРИШ ВА ИЖОБИЙ ТАҚРИЗ ОЛИБ ҲИМОЯ ҚИЛИШ

Курс иши лойиҳаси тайёр бўлгач, талаба уни ўз қўли билан чиройли, тушинарли қилиб оқ қоғозларга сифатли ҳолда расмийлаштириши ва кафедрага топшириши лозим. Кафедрада курс иши илмий раҳбар томонидан ўқиб-ўрганилади ва унга тақриз ёзилади. Тақризда хато ва камчиликлар ҳам аниқ баён этилади. Курс иши мазкур тақриз асосида уни янгидан ёзишга ёки

фақатгина камчиликларини бартараф этиш ва сўнгра ҳимоя қилишга руҳсат этилади. Шундан сўнг курс иши талабага қайтарилади ва ундаги хато ва камчиликлар бартараф этилиши учун вақт ажратилади. Ҳар бир талабага кафедрада тузилган курс ишини ҳимоя қилиш жадвали асосида ҳимоя вақти белгиланади.

Ҳимояни ўтказиш учун кафедрада тузилган комиссия (одатда 2-3 кишидан иборат бўлади) талабанинг курс иши бўйича маърузасини тинглаб, савол-жавоб билан унинг рейтинги (баҳоси) аниқланади.

Курс ишини тайёрлаб, махсус дафтарга ёки қоғозлар тўпламидан иборат жилд (папка)га тикилган ҳолда компьютерда ёзилган титул вараги билан кафедрага топшириши шарт. Чунки яхши ёзилган реферат ва курс иши танлови ҳам ўтказилиб, энг яхши деб топилган курс ишлари мазкур танловга тақдим этилади ва кафедрада намуна тариқасида сақланади.

Курс ишининг охирида фойдаланилган адабиётлар рўйхати келтирилади. Адабиётлар рўйхатини тузишда энг аввало, Республикамиз Конституцияси, Олий Мажлис томонидан қабул қилинган Қонунлар, Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган Қарорлар, Президент асарлари, маърузалари ўз аксини топиши, сўнгра бошқа муаллифлар рўйхати алфавит тартиби билан берилиши лозим.

Адабиётларни икки қисмга бўлиб бериш ҳам мумкин. Биринчиси асосий адабиётлар ва иккинчиси қўшимча адабиётлар шаклида. Курс ишини ёзишда, уни расмийлаштиришда келтирилган рақамлар, жадвал ва графиклар аниқ ифодаланган ҳолда ҳамда мазкур маълумотлар манбалари ҳам кўрсатилиши шарт.

Курс иши тушинарли тилда, аниқ ҳарфлар билан ўқий оладиган даражада ёзилиши зарур. Курс иши бўйича мвзуларни ўрганишни кейинчалик яна давом эттириб, битирув малакавий ишга айлантириш ҳам мумкин. Бунинг учун талаба шу мавзу устида доимо изланиш олиб бориши ва керакли адабиётларни ўқиб бориши лозим бўлади.

Samisk

курс ишлари тематикаси

1. Иқтисодиёт назариясининг фан сифатида шаклланиш жараёнлари.
2. Иқтисодиёт назарияси фанининг предмети.
3. Иқтисодий категориялар ва қонунлар.
4. Моддий ва маънавий неъматларни ишаб чиқариш, тақсимлаш, айрибошлаш ва истеъмол қилишдаги иқтисодий муносабатлар.
5. Давлат иқтисодий сиёсатининг илмий асоси сифатида иқтисодий назариянинг тутган ўрни ва вазифалари.
6. Ижтимоий – иқтисодий эҳтиёжлар ва уларнинг ишлаб чиқариш билан узвий боғлиқлиги.
7. Ресурслар чекланган шароитда чексиз эҳтиёжларни қондириш муаммолари.
8. Иқтисодий фаолиятнинг мазмуни ва иқтисодий асослари.
9. Ишлаб чиқариш омиллари ва улар тўғрисидаги назариялар.
10. Иқтисодий тараққиётни таъминлашда модернизациянинг ўрни ва роли.
11. Ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги ва унинг асосий кўрсаткичлари.
12. Фан-техника тараққиёти асосида ишлаб чиқариш имкониятларининг кенгайиши ва такомиллашуви.
13. Ўзбекистоннинг иқтисодий ресурслари ва улардан самарали фойдаланиш муаммолари.
14. Ижтимоий ишлаб чиқариш усули ва ижтимоий-иқтисодий формациялар.
15. Мулкчилик муносабатларининг моҳияти ва иқтисодий тизимнинг ички ўзаро боғлиқлиги.
16. Бозор иқтисодиёти шароитида мулкчиликнинг турли туман шакллари.
17. Иқтисодиётни ислоҳ қилишда мулкчилик муносабатларининг ўрни ва роли.
18. Ўзбекистонда мулкни давлат тасаруффидан чиқариш ва хусусийлаштириш йўллари.

19. Натурал ва товар ишлаб чиқаришнинг ижтимоий хўжалик шакллари.

20. Товар қиймати ва унинг хусусиятлари.

21. Меҳнат унумдорлиги ва меҳнат интенсивлиги.

22. Меҳнат унумдорлиги ва меҳнат интенсивлигининг товар қийматига таъсири.

23. Қиймат қонунининг ишлаб чиқаришни ривожлантиришдаги аҳамияти.

24. Пул ва унинг вазифалари.

25. Ўзбекистонда миллий пул – сўмнинг муомилага киритилиши ва унинг аҳамияти.

26. Бозор иқтисодиётининг моҳияти ва келиб чиқишининг тарихийлиги.

27. Бозор иқтисодиёти шароитида ресурслардан самарали фойдаланиш усуллари.

28. Ижтимоий жиҳатдан йўналтирилган бозор иқтисодиёти ва унинг хусусиятлари.

29. Бозор иқтисодиётига ўтиш назарияси.

30. Бозор иқтисодиётига ўтишнинг миллий моделлари.

31. Бозор иқтисодиётига ўтишнинг «ўзбек модели» ва унинг хусусиятлари.

32. Ўзбекистонда бозор иқтисодиёти инфратузилмасининг яратилиши ва унинг муаммолари.

33. Талаб ва таклиф қонунлари ва уларнинг ҳаракат қилиш механизми.

34. Бозор мувозанати ва унинг иқтисодиётга таъсири.

35. Рақобат курашининг моҳияти ва ижтимоий-иқтисодий оқибатлари.

36. Монополиялар ва давлатнинг монополияга қарши тадбирлари.

37. Нарх ва унинг объектив асослари.

38. Тадбиркорлик фаолияти ва унинг асосий шакллари.

39. Кичик ва хусусий бизнеснинг бозор иқтисодиётида тутган ўрни ва ривожланиш хусусиятлари.

40. Акционерлик жамияти ва акционерлик капиталини шакллантиришнинг асосий тамойиллари.

41. Тадбиркорлик капиталининг моҳияти ва уларнинг доиравий айланиш босқичлари.

42. Ишлаб чиқариш воситаларидан фойдаланиш самарадорлиги ва уни ошириш йўллари.

43. Корхоналар (фирмалар)да ишлаб чиқариш харажатлари.

44. Корхонанинг пул тушумлари ва фойдаси.

45. Корхона фойдасини ошириш йўллари.

46. Фойда нормасининг камайиб бориш қонуни.

47. Иш ҳақининг иқтисодий мазмуни ва турлари.

48. Меҳнат муносабатлари ва унинг таркиби.

49. Меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатлар эволюцияси.

50. Аграр муносабатлар ва уларнинг бозор тизимидаги хусусиятлари.

51. Ер рентаси ва рента миқдорига таъсир қилувчи омиллар.

52. Агросаноат интеграцияси, агробизнес ва унинг турлари.

53. Ўзбекистонда аграр сектор ва фермер - деҳқон хўжалигини ривожлантириш.

54. Ўзбекистонда миллий иқтисодиётнинг шаклланиш хусусиятлари.

55. Макроиқтисодиёт, унинг кўрсаткичлари, мақсади ва вазифалари.

56. Макроиқтисодиётнинг ривожланиши тўғрисидаги асосий назариялар.

57. Миллий маҳсулотнинг иқтисодий мазмуни ва унинг ҳаракат шакллари.

58. Ижтимоий формациялар ва уларни белгиловчи омиллар.

59. Ялпи талаб ва унинг миқдорига таъсир этувчи омиллар.

60. Ялпи таклиф ва унинг миқдорига таъсир этувчи омиллар.

61. Ялпи талаб ва таклиф ўртасидаги ўзаро боғлиқлик.

62. Истеъмолнинг иқтисодий мазмуни.

63. Истеъмол фондининг тақсимланиши ва аҳоли даромадларининг шаклланиши.

64. Жамғариш ва истеъмолнинг иқтисодий мазмуни.

65. Инвестициянинг моҳияти ва вазифалари.

66. Инвестиция ва унинг даражасини аниқловчи омиллар.
67. Инвестиция самарадорлиги.
68. Ўзбекистонда инвестицион фаолият ва унинг кўрсаткичлари.
69. Иқтисодий ўсиш ва ижтимоий тараққиёт.
70. Иқтисодий ўсиш мезонлари ва кўрсаткичлари.
71. Миллий бойлик тушинчаси ва ундан фойдаланиш муаммолари.
72. Ўзбекистоннинг иқтисодий потенциали ва ундан самарали фойдаланиш.
73. Иқтисодий ўсиш ва унга таъминлаш муаммолари.
74. Макроиқтисодий мувозанат ва унга эриши йўллари.
75. Иқтисодиётдаги таркибий ва такрор ишлаб чиқариш мувозанатларини таҳлил қилишда «харажат – натижа» усулидан фойдаланиш.
76. Миллий иқтисодиётда такрор ишлаб чиқариш.
77. Ишлаб чиқаришнинг мувозанатли ҳажмини аниқлашда Кейнс моделидан фойдаланиш.
78. Ижтимоий такрор ишлаб чиқаришнинг зиддиятлари ва уни бартараф этиш усуллари.
79. Иқтисодий циклллар ва иқтисодий барқарорлик назарияси.
80. Таркибий инқирозлар ва иқтисодиётдаги таркибий силжишлар.
81. Ишчи кучи ва унинг ижтимоий-иқтисодий моҳияти.
82. Ўзбекистонда социал демографик жараёнлар ва уларнинг хусусиятлари.
83. Бандлик назарияси.
84. Ишчи кучи бандлиги ва таъминлаш эришиш йўллари.
85. Ишчи кучи бозори.
86. Ишчи кучига талаб ва таклиф.
87. Ўзбекистонда ишчи кучи бозорининг шаклланиши ва тартибга солиниши.
88. Бозор иқтисодиётида молия.
89. Давлат бюджетининг миллий даромадаларни тақсимлаш ва қайта тақсимлашдаги роли.

90. Ўзбекистон Республикаси бюджетининг тузилиши ва таркиби.

91. Бозор иқтисодиёти шароитида солиқлар ва солиқлар тизимининг вазифалари.

92. Молиявий инқироз ва уни бартараф этиш йўллари.

93. Бозор иқтисодиётига ўтишда давлатнинг молиявий сиёсати.

94. Пул муомиласи ва пул тизими.

95. Пул муомиласининг амал қилиш қонуниятлари.

96. М.Фридманнинг пул тўғрисидаги назарияси.

97. Пул бозоридаги макроиқтисодий мувозанат.

98. Инфляция ва унинг сабаблари.

99. Кредитнинг моҳияти, вазифалари ва турлари.

100. Қимматли қоғозлар бозори.

101. Пул-кредит тизимининг давлат томонидан тартибга солиниши.

102. Ўзбекистон Республикасининг банк тизими.

103. Банкларнинг роли ва вазифалари.

104. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг моҳияти, зарурияти ва моделлари.

105. Ижтимоий адолат концепцияси.

106. Бозор иқтисодиёти шароитида ижтимоий адолат принципларининг ривожланиши.

107. Даромадларни давлат томонидан қайта тақсимлашнинг иқтисодий механизми.

108. Аҳоли даромадлари ва уларнинг шаклланиш манбалари.

109. Ўзбекистонда бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида давлатнинг ижтимоий сиёсати.

110. Жаҳон хўжалигининг ташкил топиши, босқичлари ва асосий белгилари.

111. Иқтисодиётнинг байналмилаллашувида фан-техника тараққиёти ва трансмиллий капиталнинг роли.

112. Халқаро иқтисодий интеграция ва унинг вазифалари.

113. Дунё мамлакатларининг иқтисодий ривожланиш бўйича табақаланишуви.

114. Ўзбекистонда очиқ иқтисодиётни яратиш ва чет эл капиталларини жалб қилиш муаммолари.

115. Жаҳон бозори ва ҳалқаро савдо.

116. Ҳалқаро валюта тизими.

117. Маҳаллий ўз-ўзини бошқаришнинг иқтисодий асоси ва уни мустаҳкамлаш йўллари.

118. Ссуда капиталининг жаҳон бозори.

119. Ўзбекистон Республикасининг ҳалқаро валюта ва кредит ташкилотлари билан ҳамкорлиги ва истиқболлари.

120. Миллий ва ҳалқаро бозорларнинг ўзаро боғлиқлиги ва уларнинг муаммолари.

КУРС ИШИ МАВЗУЛАРИНИНГ ШИФРИ

Талаба фамилиясининг бош ҳарфи (кирилл ва лотин ҳарфларида)		Мавзулар				
А	A	1	97	33	116	65
Б	B	81	17	113	49	6
В	V	2	98	34	18	66
Г	G	82	18	114	50	9
Д	D	3	99	35	53	67
Е	E	83	19	115	51	99
Ё	YO	4	100	36	81	68
Ж	J	84	20	116	52	69
З	Z	5	101	37	25	69
И	I	85	21	117	53	9

Й	Y	6	102	38	96	70
К	K	86	22	118	54	32
Л	L	7	103	39	84	71
М	M	87	23	119	55	30
Н	N	8	104	40	23	72
О	O	88	24	120	56	4
П	P	9	105	41	120	73
Р	R	89	25	5	57	11
С	S	10	106	42	80	74
Т	T	90	26	16	58	99
У	U	11	107	43	66	75
Ф	F	91	27	23	59	100
Х	X	12	108	44	23	76
Ч	CH	92	28	78	60	49
Ш	SH	13	109	45	37	77
Э	E	93	29	55	61	18
Ю	YU	14	110	46	9	78
Я	YA	94	30	2	62	106
Ў	O'	15	111	47	50	79
Қ	Q	95	31	42	63	76
Ғ	G'	16	112	48	102	80
Ҳ	H	96	32	14	64	28

КУРС ИШИ МАВЗУЛАРИ БЎЙИЧА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

I. Республика конунлари, меъёрий хужжатлар ва Президент И.А.Каримов асарлари.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т., «Ўзбекистон», 1994.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Мулкчилик тўғрисида»ги Қонуни. 1990 йил 31 октябр.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик тўғрисида»ги Қонуни. 1991 йил 15 феврал.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Корхоналар тўғрисида»ги Қонуни. 1991 йил 15 феврал.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида»ги Қонуни. 1991 йил 19 ноябр.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Кооперация тўғрисида»ги Қонуни. 1991 йил 14 июн.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 1991 йил 15 феврал.
8. Ўзбекистон Республикасининг «Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида»ги Қонуни, 1991 йил 14 июл.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Ижара тўғрисида»ги Қонуни, 1992 йил.
10. Ўзбекистон Республикасининг «Хўжалик жамиятлари ва ширкатлар тўғрисида»ги Қонуни. 1992 йил 9 декабр.
11. Ўзбекистон Республикасининг «Ер солиғи тўғрисида»ги Қонуни, 1993 йил 6 май.
12. Ўзбекистон Республикасининг «Пул тизими тўғрисида»ги Қонуни, 1993 йил 7 май.
13. Ўзбекистон Республикасининг «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуни, 1993 йил 7 май.
14. Ўзбекистон Республикасининг «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги Қонуни, 1993 йил 7 май.

15.Ўзбекистон Республикасининг «Кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни рағбатлантириш тўғрисида»ги Қонуни. 1995 йил 21 декабр.

16.Ўзбекистон Республикасининг «Товар ишлаб чиқарувчилар ва тадбиркорлар палатаси тўғрисида»ги Қонуни. 1997 йил 24 апрел.

17.Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик ва тадбиркорлик фаолиятининг кафолотлари тўғрисида»ги Қонуни. 1999 йил 22 январ.

18.«Деҳқон (фермер) хўжалиги тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 2004 йил 27 октябр.

19.Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат Кодекси. Т., "Шарқ", 1999.

20.Ўзбекистоннинг янги қонунлари (тўпламлар). 1-18 тўплам. - Т., «Адолат» тегишли йилларда.

21.Ўзбекистон Республикасининг Президентининг «Иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, хусусий мулк манфаатларини ҳимоя қилиш ва тадбиркорликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармони. 1994 йил 26 январ.

22.Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. - Т. «Ўзбекистон», 1992.

23.Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура: Нутқлар, мақолалар, суҳбатлар. - Т., «Ўзбекистон», 1993.

24.Каримов И.А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. - Т., «Ўзбекистон», 1993.

25.Каримов И.А. Янги уй қурмай туриб эскисини бузманг. - Т., «Ўзбекистон», 1993.

26.Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.-Т.,«Ўзбекистон», 1994.

27.Каримов И.А. Иқтисодий ислоҳот: масъулиятли босқич. - Т., «Ўзбекистон», 1994.

28.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т., «Ўзбекистон», 1997.

29.Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.,«Ўзбекистон», 1998

30.Каримов И.А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар Т., «Ўзбекистон», 1992.

31.Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. - Т., «Ўзбекистон», 1993.

32.Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. Т., «Ўзбекистон», 1995.

33.Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. - Т., «Ўзбекистон», 1995.

34.Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. Т.: «Ўзбекистон», 1999.

35.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. - Т., «Ўзбекистон», 1999.

36.Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. - Т., «Ўзбекистон», 2000.

37.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3., - Т. "Ўзбекистон", 1996.

38.Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан Т.4, Т., "Ўзбекистон", 1997.

39.Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби Т.5, - Т., "Ўзбекистон", 1997.

40.Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6, - Т.7, Т., "Ўзбекистон", 1998.

41.Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. Т.7, Т. "Ўзбекистон", 1999.

II. Махсус адабиётлар.

42.Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. - Т.: Маънавият, 1999.

43.Абдуллаев Ё. Бозор иқтисодиёти асослари: 100 савол ва жавоб. - Т., «Меҳнат», 1997.

44.Абдуллаев Ё. Макроиқтисодий статистика. 100 савол ва жавоб. - Т., «Меҳнат», 1998.

45.Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. - Т., «Меҳнат», 2000.

46.Абдураҳмонов К ва бошқ. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Т., "Ўқитувчи", 2001.

47.Абдураҳмонов К.Х., Мамарасулов Ф.У. Меҳнат иқтисоди. Тошкент, ТДИУ, 1996.

48.Абдураҳмонов К.Х., Муртазаев Б.Ч. Меҳнат бозори. (Ўқув қўлланма.) - Тошкент, ТДИУ. 1999.

49.Абдуғаниев А., Мирзакаримова М. Ўтиш даври иқтисодиётида меҳнат бозори. - Тошкент, «Меҳнат», 1999.

50.Адамчук В.В. и др. Экономика и социология труда. Учебник для вузов. - М.: ЮНИТИ, 1999.

51.Акрамов Э.А. Экономические реформы Республики Узбекистан. -М.: ТОО «Люкс-арт», 1998.

52.Акрамов Э.А., Ишмухамедов Ш. Узбекистан на пути к рынку: теоретические основы, условия и практика перехода. - Т.: Узбекистан, 1993.

53.Видяпин В.И. и др. Экономическая теория. М., Рос.Экон.Акад., 2000.

54.Гафарлы М.С., Касаев А.Ч. Узбекская модель развития: мир и стабильность - основа прогресса. М.: «Драфа», 2000.

55.Ибратов Б. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Т., "Молия", 2001.

56.Инсон тараққиёти тўғрисида ҳисобот. Тошкент, «Ўзбекистон.» 1997.

57.Исломов А., Эгамов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т., 2001.

58.Йўлдошев З. Қосимов М. Макроиқтисодиёт асослари. Т.: Ўқитувчи, 1994.

59.Кадиров А. Экономическая теория. ТГТУ, Т., 1999.

60.Камаев В.Д. Основы экономической теории. М., МГТУ 1996.

61.Курс экономической теории. Под редакцией проф. Чепурина М.Н. Киров "Аса" 2002.

62.Макконелл К.Р, Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы, политика. Т.1,2. М., "Инфра-М", 2000.

63.Мухаммедов М ва бошқ. Тадбиркорлик иқтисодиётининг асослари. Самарқанд, 1998.

64.Пардаев М.Қ, Абдукаримов Б.А. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси Самарқанд, СамКИ, 2001.

65.Расулов М. Бозор иқтисодиёти асослари. Т.: Ўзбекистон, 1999.

66.Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. М., - ТЕИС, 2000.

67.Самуэльсон П.Р, Нордхаус В.Д. Экономика. М., Вильямс, 2000.

68.Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Экономика, 1993.

69.Собиров Х. Суғурта. 100 савол ва жавоб. –Т.: Меҳнат, 1998

70.Тошниёзов М., Шарифбоев И., Обидов О. Корхонада бошқарув фаолияти асослари. - Т.: Ўзбекистон, 1995.

71.Чжен В.А. Бозор қонунияти асослари. Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1996.

72.Чжен В.А. Бозор шароитида минтақанинг тармоқ тараққиёти. Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1997.

73.Чжен В.А. Хусусийлаштириш асослари. Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1996.

74.Чжен В.А. Пул ва молия бозори. Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1997.

75.Чжен В.А. Бозор ва очиқ иқтисодиёт. Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1997.

76.Шодмонов Ш.Ш, Алимов Р.Х, Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Т., "Молия", 2002.

77.Шишкин А.Ф. Экономическая теория. Учебник. Книга 1-2. - М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1996.

78.Экономическая теория. Учебник. / Кол. Авторов К.Абдурахманов и др. Т.: «Шарк», 1999.

79.Эркин иқтисодиёт тамойиллари. Т., Давлат ва жамият қурилиш Академияси, 2005.

80.Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида. Т., Давлат ва жамият қурилиш Академияси, 2005.

81.Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Т., Давлат ва жамият қурилиш Академияси, 2005.

82.Ўлмасов А. Иқтисодиёт асослари. Т., "Меҳнат" 1997.

83.Ўлмасов А, Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т., "Меҳнат" 1995.

84.Кучли давлатдан кучли жамият сари. Т., Давлат ва жамият қурилиш Академияси, 2005.

85.Қаршиев Р., Тўхтамишев А. Иқтисодий таълимотлар тарихи. (маърузалар матни), Самарқанд - СамКИ, 2001.

86.Гуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. Т., "Шарқ", 2002.

87.Гуломов С, Абдуллаев А, Сотволдиев А. Иқтисодиёт илми асослари. Т., "Молия" 2002.

III. Газета ва журналлар

88.«Халқ сўзи» газетаси.

89.«Ўзбекистон овози» газетаси.

90.«Мулкдор» газетаси.

91.«Солиқ ва божхона ҳабарлари» газетаси.

92.«Ўзбекистон: иқтисодий йўналишлар» чораклик нашри.

93.«Иқтисод ва ҳисобот» журнали.

94.«Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журнали.

95.«Бозор, пул ва кредит» журнали.

96.«Экономические обозрение» журнали.

97.«Рынок, деньги и кредит» журнали.

Самарқанд иқтисодиёт
ва сервис институти
Институт босмахонаси,
Шохрух кўчаси, 60

Буюртма № 223
Ҳажми 2 б.т.
Адади 200 нусха

202-31

65.01
K 177

202-31

65.01
K 177